
Plastik raqamini begonaga aytgan shaxs pullaridan ayrildi

Farg'ona viloyati Rishton tumanida plastik karta raqamini begonaga aytgan shaxs pullaridan ayrildi. Bu haqda IIV [xabar](#) bermoqda.

Ma'lum qilinishicha, 5 iyun kuni B.X. ismli ayol IIBga murojaat qilib, unda 2021 yilning 8 may kuni noma'lum shaxs bilan Telegram ijtimoiy tarmog'i orqali tanishib, Telegram profilidan "Hurmatli mijoz siz "Click" ilovasidan faol foydalanganligingiz uchun 500.000 so'm pul mukofotini yutib oldingiz" deb, pullarni plastik raqami hisobiga o'tkazib berishini aytgan.

Shundan so'ng, aldov yo'li bilan plastik karta raqamini olib, plastik kartasi hisobida bo'lgan 1.500.000 so'm pul mablag'larini boshqa plastik karta hisobiga o'tkazish orqali qo'lga kiritganligini ma'lum qilgan.

Mazkur holat yuzasidan Farg'ona shahar IIO FMB huzuridagi tergov bo'limi tomonidan Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi v" bandi (firibgarlik) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Olib borilgan tezkor qidiruv harakatlari davomida ushbu jinoyatni X.D. sodir etganligi aniqlanib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

2021-06-16 11:21:10